

FOROBIYNING MANTIQ ILMI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Ergashev Ozodbek

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola IX-X asrlarda yashab o'tgan yetuk mutafakkir Al Forobiyning Mantiq fani rivojiga qo'shgan o'ziga xos hissasi, uning Mantiq ilmiga oid asarlari va qisqacha mantiqiy qarashlari haqida bo'lib, maqolada mutafakkirning qarashlaridan ba'zi namunalar ham keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Al Forobiy, Mantiq, Sharq falsafasi, Yunon falsafasi, Aristotel mantig'i.

IX-XI asrlarda Musulmon sharqida falsafiy ilmlarni o'rghanish va ularni arab tiliga tarjima qilish keng miqyosda olib borildi. Ushbu davrda ayniqsa qadimgi yunon va hind falsafiy manbalari tarjima va tadqiq qilindi. Yaqin va O'rta sharqda Mantiq ilmining rivojlanishi ham aynan shu davrga to'g'ri keladi. Al Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Al Xorazmiy kabi o'nlab zabardast faylasuflar yetishib chiqishdi va Falsafa va Mantiqqa oid ko'plab asarlar yozishdi, hatto Arrestotelning kitoblariga sharhlar yozildi.

Yunon faylasuflari istilohlari va tafakkur uslubi bilan yozilgan Kindiy, Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushdlarning mukammal falsafiy asarlari mashshoiy yoki boshqacha aytganda, peripatetik falsafa sifatida g'arbda e'tirof etildi. Islom esa, aksincha, ularni yunon falsafasi targ'iboti deb bildi. Holbuki, Forobiy o'z asarlarida tushuntirishga uringanidek, yunon falsafasi aslida sharqda mavjud ilmlardan oziqlangan edi.¹

Mantiq masalalarini keng va izchil tadqiq etgan mutafakkir Al-Forobiy (873-950 y.y.)dir. U Sirdaryo bo'yidagi O'tror shahar-qal'asida, turkiy harbiy oilada dunyoga keldi. Buxoro va Samarqand shaharlarida bilim oldi. U qadimgi grek, hind falsafasini

¹ Islom falsafasiga kirish. Kalom ilmi. Sh. Sirojiddinov. Toshkent-2008. 4-bet.

chuqur o'rgandi, ilimning turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli hajmdagi risolalar yozib qoldirdi, umrining so'nggi yillarini Damashqda o'tkazdi. Forobiy asarlarining katta qismi falsafa va mantiq ilmiga oiddir. Forobiya mantiqiy bilimlar sistemasi «Isog'uvchi» (Kirish), «Maqulot» (Kategoriya), «Ibora» (Xukm), «Qiyos» (Sillogizm, Birinchi analitika), «Burxon» (Isbotlash, «Ikkinchchi analitika»), «Jadal» (Dialektika), «Safsata» (Sofistik raddiya), «Xitoba» (Ritorika), «She'r» (Poetika) asarlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, Forobiy «Mantiq ilmiga kirish», «Aql xaqida», «Shartli hukmlar», «Sillogizm» kabi asarlarida mantiq masalalarini ishlab chiqdi.² «Ilmlar tasnifi» asarida ham mantiq ilmining predmeti, tuzilishi, ilmlar sistemasida tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritadi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, mantiq san'ati intellektning mukammallashuviga olib keluvchi va insonni haqiqat tomon yo'naltiruvchi qonunlarning majmuasini o'rganadi. Bu qonunlar insonlarni bilish jarayonidagi turli xato va adashishlardan saqlaydi. Inson bu qonunlar yordamida bilimlarini tekshirib, ularning chin yoki xatoligini aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Forobiyning mantiqiy ta'limoti uning gnoseologik ta'limoti bilan uzviy bog'likdir. Uningcha, fikrlar tabiatdagi narsa va hodisalarini sezgilar orqali bilish asosida vujudga keladi.

Forobiyning aql, umuman bilish haqidagi ta'limotida mantiq (logika) ilmi muhim o'rin tutadi. "Mantiq san'ati kishiga shunday qonunlar haqida ma'lumot beradiki, – deb yozgan edi u, – bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikr yuritishga o'rganadi". Forobiy mantiq ilmi bilan grammatika o'rtasidagi mushtaraklikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabitidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi.

Forobiy logikasi musulmon Sharqidagi so'nggi mantiqqa oid fikrlarning rivojiga katta turki berdi. Forobiyning bilish, mantiq, aql haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta'limoti uchun xizmat qiladi, unga bo'ysundirilgandir. Aqlga ega bo'lish, bilimli, mantiqli bo'lish bilan chegaralanmay, u ma'lum axloqiy prinsiplarga, axloqiy madaniyatga egalik bilan yakunlanishi kerak. Forobiy aqlli inson haqida gapirib

² Mantiq. M.Sharipov. D. Fayzixo'jayev. Toshkent-2004. 24-b.

bunday yozadi: “Aqlli deb shunday kishilarga aytildik, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo‘lganlarni aqlli deb bo‘lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mantiq. M.Sharipov. D. Fayzixo’jayev. Toshkent, 2004
2. Islom falsafasiga kirish. Kalom ilmi. Sh. Sirojiddinov. Toshkent, 2008
3. Forobiy. Risolalar. Toshkent, 1975.
4. Forobiy va uning falsafiy risolalari. M. Xayrullayev tahriri ostida. - T.: “Fan”, 1969.